




SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-noyabr oyi
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **612,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **86,1** mln. AQSh dollariga yoki **16,4** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-noyabr, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	526143,1	612244,6	116,4 %	x
Eksport 	154727,2	215157,1	139,1 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	153377,0	212024,3	138,2	98,5
 <i>xizmatlar</i>	1350,2	3132,8	232,0	1,5
Import 	371416,0	397087,5	106,9 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	371413,4	397087,5	106,9%	100,0
 <i>xizmatlar</i>	2,6	0,0	0,0	0,0
Saldo 	-216688,8	-181930,3	x	x




Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **215,2** mln. AQSh dollariga (**39,1** % ga ko'paydi) va import hajmi **397,1** mln. AQSh dollariga (**6,9** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **181,9** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-noyabr oyida **612,2** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **16,4** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-noyabr)





Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**146,6** mln. AQSh dollari), Qozog'iston (**152,0** mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (**103,2** mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (**76,6** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo jahonning **63** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAda salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**24,0** %), Qozog'iston (**24,9** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**16,9** %), Afg'oniston (**12,6** %), Germaniya (**4,1** %), Qirg'iz Respublikasi (**0,7** %) va Turkiya (**3,6** %) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Rossiya Federatsiyasi	83,9	109,2	146,6
<i>Eksport</i>	19,4	33,1	39,8
<i>Import</i>	64,5	76,1	106,8
Qozog'iston	99,5	118,6	152,0
<i>Eksport</i>	36,9	22,3	18,0
<i>Import</i>	62,6	96,3	134,0
 Xitoy Xalq Respublikasi	146,6	99,7	103,2
<i>Eksport</i>	24,6	22,9	44,3
<i>Import</i>	122,0	76,8	58,9



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Afg'oniston	9,9	52,3	76,6
<i>Eksport</i>	9,9	52,3	76,6
<i>Import</i>	-	-	-



Pokiston	2,3	5,0	9,1
<i>Eksport</i>	2,1	5,0	8,3
<i>Import</i>	0,2	-	0,8



Litvaya	4,4	5,3	3,0
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	4,4	5,3	3,0



Qirg'iz Respublikasi	4,5	3,5	4,3
<i>Eksport</i>	1,8	1,3	3,5
<i>Import</i>	2,7	2,2	0,8



Turkiya	25,6	19,6	22,1
<i>Eksport</i>	3,5	1,2	9,2
<i>Import</i>	22,1	18,4	12,9



Ispaniya	0,2	-	1,5
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	-	1,5



Germaniya	27,4	37,7	25,0
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	27,4	37,6	25,0




Tojikiston	7,0	4,5	5,0
<i>Eksport</i>	5,2	3,9	4,6
<i>Import</i>	1,8	0,6	0,4



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	612 244,6	116,4
Boyovut	24 869,3	123,8
Guliston	20 889,7	2,0 m.
Mirzaobod	20 943,6	45,9
Oqoltin	9 812,1	62,7
Sardoba	5 891,1	120,7
Sayxunobod	54 692,8	178,2
Sirdaryo	157 415,0	102,8
Xovos	23 240,2	104,5
Guliston sh.	75 418,8	113,9
Shirin sh.	80 199,1	128,8
Yangiyer sh.	136 783,8	145,3

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 157 415,0

Yangiyer sh. - 136 783,8

Shirin sh. - 80 199,1

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Guliston – 20 889,7

Oqoltin – 9 812,1

Sardoba – 5 891,1

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **25,7 %** ulush bilan **157 415,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Sardoba tumani **1,0 %** ulush bilan **5 891,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **52,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **4,0 %** ga ko'paygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-noyabr oyida 2020-yil ulushiga nisbatan **0,4 %** ga kamayib va jami TSAdagi ulushi **47,7 %** ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021- yil yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-noyabr holatiga **319 891,2** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **68 741,6** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **251 149,6** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**46,0** %), Qozog'iston (**48,0** %), Qirg'iz Respublikasi (**2,0** %), Turkmaniston (**3,0** %) va Tojikiston (**2,0** %) davlatlari bilan qayd etildi.




SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **303 748,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **61 358,4** ming AQSh dollari, import hajmi esa **242 389,8** ming AQSh dollariga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-noyabr)



Joriy yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning eksportyorlari soni **175** tani tashkil etib, ular tomonidan **215 157,1** ming AQSh dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **39,1** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**31,7** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**46,8** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**2,3** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020- y	2021- y	2020 -y	2021- y	2020- y	2021- y
Jami eksport	154 727,1	215 157,1	126,7	139,1	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	87 185,6	99 837,8	168,8	115,0	56,5	46,8
Ichimliklar va tamaki	73,9	25,6	0,0	35,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12 578,9	14490,1	66,5	116,0	8,2	6,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	636,9	0,0	85,0	0,0	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5 764,0	4918,2	149,9	86,0	3,7	2,3
Sanoat tovarlari	31 579,2	67 612,8	106,1	2,1 m.	20,5	31,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2 056,8	6 085,6	88,1	2,9 m.	1,3	2,9
Turli xil tayyor buyumlar	13 501,6	18 951,4	103,0	141,0	8,8	8,9
Xizmatlar	1350,1	3235,6	75,9	2,4 m.	0,6	0,6



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-noyabr oyida **215 157,1** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **60 430,0** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-noyabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	25395,6	73,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	72187,5	144,5
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2130,5	97,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	49,7	32,8

Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,9	1,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	24,6	2,8 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	11749,1	101,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	110,4	107,2
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	884,3	3,4 m.
Qog'oz massasi va makulatura	1384,6	3,5 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-noyabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 067,4	86,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	244,6	89,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo 'qlar	116,8	1 0,3 m.
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	475,6	60,2

Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	44364,8	2,2 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , mo'yna	13442,0	141,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8204,1	4,1 m.

Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	263,5	87,9
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1127,5	13,2 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4461,8	2,6 m.
Turli hil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	18009,8	138,8
Har hil tayyor buyumlar	801,9	3,3 m.





MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-noyabridagi **41,6** %dan 2021- yilning yanvar-noyabrida **32,0** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **68,0** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-noyabr, % da)

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **35,9** %), Rossiya Federatsiyasi (**18,7** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**20,8** %), Pokiston (**3,9** %), Qozog'iston (**8,4** %), Turkiya (**4,3** %) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **7,9** foizni tashkil etmoqda.



**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Afg'oniston	52 333,0	76 611,2	5,3m.	147,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	33 116,1	39 809,4	171,0	121,0	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	22 906,3	44 286,2	93,0	194,0	4	2
Qozog'iston	22 374,9	17 975,4	61,0	81,0	6	4
Turkiya	1 182,4	9 218,4	34,0	7,8m.	7	5
Pokiston	5 027,1	8 318,4	163,0	166,0	3	6
Qirg'iz Respublikasi	1286,5	3 459,5	72,0	2,6m.	5	7



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)



	Ming. AQSh dollari	O'sish surati, % da
Sirdaryo viloyati	215 157,1	139,1
Boyovut	13 055,2	103,4
Guliston	18 184,8	2,9 m.
Mirzaobod	13 148,9	84,3
Oqoltin	5 093,9	121,8
Sardoba	2 276,4	94,5
Sayxunobod	17 971,5	136,7
Sirdaryo	52 609,9	174,0
Xovos	13 088,5	167,0
Guliston sh.	24 043,0	135,0
Shirin sh.	3 247,8	37,1
Yangiyer sh.	50 568,5	144,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 52 609,9

Yangiyer sh. - 50 568,5

Guliston sh. – 24 043,0

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin – 5 093,9

Shirin sh. – 3 247,8

Sardoba – 2 276,4

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **24,5 %** ulush bilan **52 609,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Sardoba **1,1 %** ulush bilan **2 276,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **25 395,6** ming AQSh dollari qiymatli **54 348,6** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **9119,0** ming AQSh dollarida pasaygani kuzatilib, **26,0** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **19 355,7** ming AQSh dollariga teng **41 306,1** tonna sabzavot, shuningdek, **6 039,9** ming AQSh dollari qiymatidagi **13 042,5** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-noyabr)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **24,0** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	4 345,4	3 609,0	15,0
Pokiston	4 735,5	6 488,8	26,0
Rossiya Federatsiyasi	4 450,6	2 181,6	9,0
Qozog'iston	28 807,6	5 900,0	24,0
Xitoy Xalq Respublikasi	2351,0	2046,4	8,0
Qirg'iz Respublikasi	278,3	260,2	1,0

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **41** % ga ko'paydi.)



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-noyabr)




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **397 087,5** ming AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **106,9 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**32,1 %**), mashina va transport asbob-uskunalari (**29,6 %**) hamda mineral yoqilg'i, moylari va shunga o'xshash mahsulotlar (**13,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25 671,5** ming AQSh dollariga ko'paydi va **397 087,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2020 - y	2021 -y	2020-y	2021 -y	2020 -y	2021 -y
Jami import	371 416,0	397 087,5	91,7	106,9	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	93 135,2	127 376,2	2,4 m.	136,8	25,1	32,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12 747,2	12 578,0	59,2	98,7	3,4	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	16 759,2	52 133,6	69,3	3,1 m.	4,5	13,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	628,0	9 939,0	87,6	15,8 m.	0,2	2,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	47 392,0	44 550,9	54,1	94,0	12,8	11,2
Sanoat tovarlari	25 774,8	25 543,5	68,6	99,1	6,9	6,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	155 125,7	117 377,0	91,0	75,7	41,8	29,6
Turli hil tayyor buyumlar	19 781,3	7 566,1	73,4	38,2	5,3	1,9
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-noyabr oyida **397 087,5** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **25 671,5** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-noyabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	101339,9	121,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	446,8	2,5 m.
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	4666,7	24,2 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	11731,0	2,3 m.
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	5 132,9	90,1
Metall rudalari va metall parchalari	628,8	38,2
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	5 114,4	115,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	143,4	115,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	43 172,9	3,6 m.
Ko'mir, koks va briketlar	8 960,7	180,5

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	9 938,6	16,1 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	3,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-noyabr)





XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	3 157,7	179,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	11 395,7	45,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 102,3	2,4 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	1 050,9	70,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	10 807,4	154,9
Noorganik kimyo moddalari	5 556,0	124,7
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	3 960,6	65,4
Metalldan tayyorlangan buyumlar	3 797,6	72,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 274,8	76,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 822,8	63,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	61 010,9	66,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	19 175,2	83,2
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2 713,9	61,9
Energiya generatori mashinalari va asbob -uskunalar	24 251,4	94,6
Turli hil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4374,0	115,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1589,5	10,9
Har hil tayyor buyumlar	967,0	144,4



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-noyabr oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **52** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning **90,0** % ulushini tashkil qildi, bu **355 716,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-noyabr, % da)



**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI
VA O'SISH SUR'ATLARI** (yanvar-noyabr, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Rossiya Federatsiyasi	76 066,7	106 826,8	118,0	141,0	4	1
Qozog'iston	96 272,2	134 002,5	154,0	140,0	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	76 824,2	58 918,4	63,0	77,0	6	4
Avstriya	10 609,4	11 686,4	48,0	111,0	7	3
Turkiya	18 397,8	12 856,9	84,0	70,0	5	5
Germaniya	37 644,9	24 844,4	138,0	66,0	2	6
Turkmaniston	13 119,9	6 580,9	128,0	51,0	3	7

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2020- yil yanvar-noyabr)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	397 087,5	106,9
Boyovut	11 814,0	158,3
Guliston	2 704,9	66,8
Mirzaobod	7 794,8	25,9
Oqoltin	4 718,2	41,2
Sardoba	3 614,6	146,4
Sayxunobod	36 721,3	2,0 m.
Sirdaryo	104 805,2	85,2
Xovos	10 151,7	70,5
Guliston sh.	51 375,7	106,2
Shirin sh.	76 951,4	143,8
Yangiyer sh.	86 215,4	146,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 104 805,2

Yangiyer sh. - 86 215,4

Shirin sh- 76 951,4

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin – 4 718,2

Sardoba – 3 614,6

Guliston – 2 704,9

Viloyatda importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **26,4** % ulush bilan **104 805,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda import tarkibida eng quyi ulushni Guliston tumani **0,7** % ulush bilan **2704,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **117 377,0** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,0** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **41,8** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-noyabr)



10,0%

Avstriya

11 594,2 ming.
AQSh dollari

26,0%

Xitoy Xalq Respublikasi

29 673,5 ming.
AQSh dollari

28,0%

Rossiya Federatsiyasi

32 598,7 ming.
AQSh dollari

8,0%

Turkiya

8 810,1 ming.
AQSh dollari

17,0%

Germaniya

19 113,0 ming.
AQSh dollari

Mashina va transport uskunalari importi hajmining ko'payishiga energiya generator mashinalari va asbob-uskunalar (**94,6** %), shuningdek, elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan (**144,1** %) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.



SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-noyabr oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **25 543,5** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,9** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **6,4** % ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-noyabr)




Rossiya Federatsiyasi

14 875,5 ming. AQSh dollar
ulushi – 59,0 %



Xitoy Xalq Respublikasi

4412,8 ming. AQSh dollari
ulushi – 18,0 %



Qozog'iston

2563,9 ming. AQSh dollari
ulushi – 10,0 %



Latviya

973,7 ming. AQSh dollari
ulushi – 4,0 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**11847,7** ming AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**3797,6** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**2 274,8** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34

